

SAMANDAR VOHIDNING BADIY MAHORATI

Ikrom Asadov

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10655553>

Annotatsiya. Mazkur maqolada Samandar Vohidning badiiy tasvir vositalaridan, she'riy san'atning lafziy va ma'naviy lisonlaridan mohirona foydalana olganligi bois badiiy zarbi, qalbgaga ta'sir kuchi ham tuganmas zavq bag'ishlar darajadagi badiiy mahorati xususida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Adabiyot, olam va odam, tabiat va qalb, dunyo, vaqt, tun, obraz, lafziy, ma'naviy.

ХУДОЖЕСТВЕННЫЕ НАВЫКИ САМАНДАРА ВАХИДА

Аннотация. В данной статье размышляется об умелом использовании Самандаром Вахидом средств художественного изображения, словесного и духовного языка поэтического искусства, его художественной манере, силе воздействия на душу, доставляющей неиссякаемое удовольствие.

Ключевые слова: Литература, мир и человек, природа и душа, мир, время, ночь, образ, словесный, духовный.

ARTISTIC SKILLS OF SAMANDAR VAHID

Abstract. This article reflects on Samandar Vahid's skillful use of the means of artistic representation, the verbal and spiritual language of poetic art, his artistic manner, the power of influence on the soul, which gives inexhaustible pleasure.

Key words: Literature, world and man, nature and soul, world, time, night, image, verbal, spiritual.

She'ring dunyoga kelishi nimadandir yoxud kimdandir ta'sirlanish bilan bog'liq.

Ruhning qiynalishi, tafakkurning azoblanishi, zavq-u shavqning olovlanishi, ilhomning gulxanlanishi va ularning birlashuvi asosida tuyg'ular misralarda tartiblanadi, qolipga sig'maydiganlari "jaranglab", sochilib ketadi-da, mansuralar shaklida dard chekadi. Ana shu jaranglanishlar oqibatida issiq hayajonlar ijodkorni kashf etadi, uyg'oq ijodkorlar ajib tasvirlarni – qalbdagi iztirob suratlarini chizadi.

Yaratilajak badiiy mahsulning sifati shoirning dunyoqarashi: atrof-muhitni chuqur kuzatganligi, tabiatni teran tahlil eta olganligi, dunyoni keng mushohada qila olganligi, xullas, uning rangin tasavvurlari olami bilan belgilanadi.

Buxoroda hech qachon qulamaydigan bir devor, bir QO'RG'ON bor. Bu Samandar Vohid poetikasi qo'rg'oni. Devorning asosi mustahkam. Uning g'ishtlari hech qachon nuramaydigan, hech qachon ko'chmaydigan tafakkur asosida qurilgan.

Shoirning she'r-u dostonlari badiiyati shiraga boy. O'qiganingiz sari zavqlanaverasiz, "keyingisini ham o'qishim kerak", degich shavq paydo bo'ladi yuragingizda hamda bexosdan butun bir kitobni mehr bilan o'qib tugatganingizni sezmay qolasiz. Ketgan vaqtingizga achinmaysiz. Ijodkorning tuyg'ulari olamida inson va tabiat iztiroblari hamohangligini kuzatganingizdan so'ng lirik qahramon niyatlari, g'oyalariga, dardlariga sherik bo'lasiz.

Unga hamdam, o'zingizga esa darddosh topganingiz sababli SHE'RIYAT sizga rohatbaxsh ilhom bag'ishlaydi... Qattiq ta'sirlanishning boisi shoirning badiiy mahorati yuksakligidandir. Ijodkor bunday yuksak maqomga qanday erishgan? U xalqning ummonday toshayotgan ijodidan,

ustozlar yaratgan manbalardan, muqaddas bitiklardan – o‘lmas hamda boqiy ma’naviyatdan unumli va yaxshi oziqlangan.

Professor Abdurauf Fitrat shunday deb yozgan edi: ”Adabiyot – fikr, tuyg‘ularimizdagi to‘lqunlarni so‘zlar, gaplar yordami bilan tasvir qilib, boshqalarda ham shu to‘lqinlarni yaratmoqdir”¹. Demak, ijodkor yaratgan adabiy asaridagi dard-u quvonchlarni kitobxonga yuqtira olsa, o‘qig‘uvchi muxlisning yuragini to‘lqinlantira bilsa, uning izlanishlari samara beribdi, degan xulosaga kelsak arziydi.

Qalamkash qachon she’rxonni to‘laligicha tuyg‘ulari tarovatiga torta oladi? Qachonki, uning ijodida tabiiylik, samimiylik, tasvirdagi ranglarning mutanosibliigi ustunlik qilsa; shoirdagi tasavvur va tafakkur bo‘yoqlari joy-joyiga tushsa, hech qanday ortiqchalik, majburiylikka yo‘l qo‘yilmagan bo‘lsa!

Samandar Vohid nazmiyatida yuqoridagi shart va tamoyillar ustuvor. Shuning uchun uning she’riy ohangi juda go‘zal. Chiroyli she’r – hayotning chuqur mushohadasi. Mushohadani diltortar misralarda tizish – ilhom mahsuli. Ilhom ko‘pchilikka beriladi. Ammo uni oppoq qog‘ozga dard bilan muhrlash baxti hammaga ham nasib etavermaydi. Samandar Vohid shunday saodatga erishgan ijodkorlardan. U o‘ziga xos uslub va yo‘nalishga ega serqirra shoir. Uning she’rlarida Olam va Odam, Tabiat va Qalb o‘rtasidagi xo‘rsinishlar, tebranishlar o‘z aksini topgan.

Biz, mutolaa davomida shularni angladikki, Samandar Vohid she’riyatida Dunyo, Ona, Ota, Vaqt, Tun, Tong, Qalb, Gul, Daraxt, G‘uncha, Ko‘klam, Yoz, Kuz, Qish, Quyosh, Yer, Turna, Ildiz, Yaproq, Dehqon, Xotira, Ufq, Musicha, Qaldirg‘och, Sabo, Olov, Daryo, Shamol, Yulduz, Nihol, Tosh, Qirg‘oq, To‘lqin, Tog‘, Chashma, Chechak, Qor, Yo‘l, Kulba, Dastro‘mol, Qari tol, Tomchi, Yomg‘ir, Qayrag‘och, Bulut, Ot va boshqa o‘nlab obrazlar o‘zining rangin tovlanishlari bilan ko‘nglingiz osmonini yanada yorishtirib yuboradi.

Samandar Vohid badiiy tasvir vositalaridan, she’riy san’atning lafziy va ma’naviy lisonlaridan mohirona foydalana olganligi bois ijodkorning badiiy zarbi, qalbgga ta’sir kuchi ham tunganmas zavq bag‘ishlar darajada!

Samandar Vohidning “Aylanadir bu dunyo” she’rini tahlilga tortamiz. She’r yetti band, o‘ttiz besh misradan iborat. Unda, asosan, Dunyo, Vaqt, Tun, Kun, Xor, Gul, Cho‘g‘, Kul, O‘ksik Hislar obrazlari o‘z “qomat”ini namoyish etgan. Bu namoyishlarda qanday ma’no siljishlarini ko‘ramiz?

Dunyo – Ona–Zamin. Unda yaxshilik urug‘ini ekkan bo‘lsang, ezgulikka duch kelasan. Yomonlik sepgan bo‘lsang, shuni qarshi olasan. Shoir ana shu mazmunni “*Gul tutsang – gul, tosh otsang, tosh otadi*”² misrasida singdirgan. Shu o‘rinda o‘zbek xalqining “Nimani eksang, shuni o‘rasan” maqoli ham tafakkurimizda gavdalanadi va bu she’r mohiyatiga ham mos keladi.

Shoir uchun “Dunyo – sinovlarning saltanati”. Tun – qoralik. Kun – oqlik. Xor – iztirob.

Gul – shodlik. Cho‘g‘ – borliq, yoniqlik. Kul – yo‘qlik, nursizlik. Dunyo qorong‘ulikni yorug‘likka almashtiradigan, azob-u quvonchni chirmashtiradigan, borlik-u yo‘qlikni qorishtiradigan, so‘ngida ajrimga shaylanadigan qudrat ramzidir.

¹ Fitrat A. Adabiyot qoidalari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1995, – B. 21-22.

² Vohidov S. Saylanma. 1-jild. – Buxoro, 2003. – B.3.

VAQT esa ijodkor nazdida, xolis hakamdir. U hamma narsaga baho beradi, hamma qilmishlarga javob qaytaradi. O‘KSIK HISLAR – huda-behuda otilgan toshlardan, nohaq zarbalardan yaralangan SHAXS to‘lg‘onishlari, tug‘yonlaridir. Bir kuni kelib, haqiqat ro‘yobga chiqadi: “*Qoralangan gunohsizlar oqlanar, Oralangan orsiz yuzlar dog‘lanar*”³.

Dunyo o‘z qoidasini hech qachon buzmaydi. U doimo “bir tinib, bir loylanadi”.

Samandar Vohid “Aylanadir” fe‘lini qayta ta‘kidlash orqali **takror** san‘atining go‘zal namunasi yaratgan bo‘lsa, “*Qaytar dunyo qaytmay qo‘ymas, qaytadi, Aytar so‘zin aytmay qo‘ymas, aytadi*”⁴ ohangi bilan ham **siyg‘adoshlikni, ham tarse‘(muvozanat)ni**, bosh-u so‘ngi, oldi-orti, so‘l-u o‘ngi, yoqa-yengi, tun-u kun, xor-u gul, cho‘g‘-u kul yordamida **tazodni**, vaqtni xolis hakamga mengzab, **o‘xshatishni**, yaralangan, qoralangan, oralangan aniqlovchilari ta‘sirida keyin aniqlanmishlar bilan birgalikda metafora va sinekdoxalarni yuzaga keltirmoqda.

“Rohat ko‘rmay, “dunyo – zahmat”, deganlar, Zahmat ko‘rmay, “dunyo –rohat”, deganlar” misralari misolida **tard-u aksning** ajoyib ko‘rinishini kashf etgan bo‘lsa, she‘rning oxirgi bandida nur tilida shukrona aytilishi **jonlantirishning** bir qismi hisoblangan **intoqning** chiroyli shaklini namoyon qilgan.

“Samandar Vohid o‘z armonini kitobxonga yuqtira olgan. Beixtiyor odam o‘z ortiga qaraydi. Ushalmagan orzularini eslab, sarhisob qiladi, – deydi Sadriddin Salim Buxoriy “Sarhisob” maqolasida. – Fano olamidan baqo olamiga ketgan tengdoshlarini ko‘z oldiga keltiradi va “ortga nazar solganida jami kunlar oq emas”ligidan o‘kinadi.

*Daraxt sokin erur, qarasang sirdan,
Afsuski, dard chekar goho bir qurtdan.
Mahmud Torobiylar chiqqan diyor bu,
Mahmud Yalavoch ham, hayhot, shu yurtdan!*

Ushbu to‘rtlikda butun bir millat dardi jo etilgan. Mahmud Torobiyday vatanparvar, Vatan uchun jonini fido qilganlar yurtidan Mahmud Yalavochday sotqinlar ham chiqqan. Bu achchiq haqiqat kishini sergaklantiradi, hamisha ogoh bo‘lishga da‘vat etadi”⁵.

To‘rtlikdagi **DARAXT** obrazida hayotni, xalqni, millatni ko‘ramiz. Iste‘dodlari – fidoyilari DARAXTga mador bo‘lib, uning ildiziga suv bersa; sotqin, nobakor, nonko‘rlari esa mag‘zava to‘kishga urinadi yoxud shoxlarini sindirishga intiladi. Chunki faqat o‘z manfaatini o‘ylaganlarda, bu dunyo boyligiga hirs qo‘yganlarda faxrlanish tuyg‘usi so‘nib, chirib ketgan bo‘ladi. Chiriganlar fikrlay ololmaydi, ular hamisha qorin g‘amida, ular har doim nafs komida, ular mudom hirs domida...

“Samandar Vohid ijodidagi bosh mavzu ona qishloq, Vatan, muhabbatdir, –deya uqtiradi Sadriddin Salim Buxoriy. – Shoir vafoni, hayoni, iboni, sadoqatni sog‘inadi. Behayoni ko‘rganda hayo, riyokorni ko‘rganda e‘tiqod, mansabparastni ko‘rganda uzlat, ta‘magirni ko‘rganda qanoatni sog‘inadi, qo‘msaydi: hayoli, e‘tiqodli, qanoatli odamlar ko‘zingga avliyoday bo‘lib ko‘rinadi. Menimcha, haqiqiy SHOIRLAR hayo, e‘tiqod, sadoqat, vafo, qanoat qo‘rg‘oni hisoblanadi”⁶.

³ Ko‘rsatilgan asar. – B. 4.

⁴ Ko‘rsatilgan asar. – B. 4.

⁵ Vohidov S. Saylanma. 1-jild. // Sadriddin Salim Buxoriy “Sarhisob” maqolasidan. – Buxoro, – B. 398-399.

⁶ Ko‘rsatilgan asar. – B. 400-401.

Samandar Vohid qo'rg'oni abadul-abad mustahkam va sobitligini uning ko'rkam va jozibador, serjilo va maftunkor she'riyati orqali anglab yetamiz. Uning ash'orlarini qayta mutolaa qilganingiz sari Ona–Zaminni, jonajon Vatanni, so'lim Tabiatni tobora sevaverasiz, ularga nisbatan muhabbatingiz tobora oshaveradi...